

YOSH SPORTCHILARNI TANLASH VA DASTLABKI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mehirova Anora Niyozidin qizi

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu tezisda yosh sportchilarni dastlabki bosqichda tanlash va tayyorlashning pedagogik-metodik jihatlarini yoritilgan. Yosh sportchining jismoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlov mezonlarini shakllantirish masalalari, shuningdek dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi murabbiy faoliyatining o'ziga xosliklari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yosh sportchi, tanlov mezonlari, dastlabki tayyorgarlik, sport pedagogikasi, jismoniy qobiliyat, individual yondashuv, murabbiy mahorati.

Sport sohasida yuksak natijalarga erishishning muhim shartlaridan biri istiqbolli yosh sportchilarni o'z vaqtida to'g'ri aniqlash va ularni ilmiy asoslangan metodika bo'yicha tayyorlashdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, sportga erta yoshdan noto'g'ri yondashuv bilan jalb etilgan bolalarda keyinchalik jismoniy ortiqcha yuklama va motivatsiya pasayishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Shu sababli yosh sportchilarni tanlash jarayoni ilmiy-pedagogik mezonlarga tayanishi lozim.

Yosh sportchilarni tanlashda uch asosiy yo'nalishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: birinchidan, bolaning antropometrik ko'rsatkichlari va jismoniy rivojlanish darajasi; ikkinchidan, uning psixologik tayyorligi, ya'ni diqqat, iroda va motivatsiya darajasi; uchinchidan, tanlangan sport turiga xos maxsus qobiliyatlarning mavjudligi. Ushbu mezonlarning barchasi kompleks tarzda baholanganda, tanlov jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Bundan tashqari, yosh sportchini tanlash jarayonida oilaviy muhit va bolaning sport turiga bo'lgan ichki qiziqishini ham inobatga olish zarur. Ota-onalarning sport bilan shug'ullanishga bo'lgan ijobiy munosabati bolada barqaror motivatsiya shakllanishiga xizmat qiladi. Amaliyotda ko'pincha faqat jismoniy ko'rsatkichlarga asoslangan tanlov o'zini oqlamasligi, chunki psixologik va ijtimoiy omillarning e'tiborga olinmasligi keyingi bosqichlarda sportchining sport turini tark etishiga sabab bo'lishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida murabbiyning vazifasi nafaqat texnik ko'nikmalarni shakllantirish, balki bolada sportga bo'lgan barqaror qiziqishni uyg'otishdir. Bu bosqichda ortiqcha musobaqaviy yuklamadan saqlanish, mashg'ulotlarni o'yin shaklida tashkil etish va har bir bolaning individual rivojlanish sur'atini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, murabbiy tomonidan

bolaning har bir kichik yutug'i rag'batlantirilishi, uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, yosh sportchilarni ilmiy asoslangan tanlash va bosqichma-bosqich tayyorlash tizimi kelajakda yuqori sport natijalariga erishishning mustahkam poydevorini yaratadi. Bu borada murabbiylarning malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy tanlov metodikalarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov S.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Ochilov M.O. Sport pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Rashidov T.M. Yosh sportchilarni tanlash va tayyorlash metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Ergashev I.T. Bolalar sportida individual yondashuv muammolari // Pedagogika va psixologiya muammolari jurnali. – 2022. – №4. – B. 38–43.